

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING FRANSIYAGA DAVLAT TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Parij shahriga keldi.

Samolyot oldida O‘zbekiston yetakchisini Fransiya milliy ta’lim, oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlar vaziri Elizabet Born, Parij harbiy okrugi qo‘mondoni general Loik Mizon va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

“Orli” xalqaro aeroportida oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi, faxriy qorovul saf tordidi.

Mamlakatimiz delegatsiyasi joylashgan qarorgoh oldida Fransiya o‘qiyotgan, ishlayotgan va ilmiy izlanishlar olib borayotgan bir guruh vatandoshlarimiz Prezident Shavkat Mirziyoyevni katta xursandchilik bilan kutib oldi. Davlatimiz rahbari

ular bilan samimiy suhbatlashdi, o‘qish va izlanishlariga muvaffaqiyat tiladi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 12-mart kuni mo‘ljallangan.

Dasturga muvofiq, Yelisey saroyida oliy darajadagi O‘zbekiston — Fransiya muzokaralari bo‘lib o‘tadi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari UNESCO bosh direktori Odri Azule bilan uchrashuv hamda Fransiyaning yetakchi kompaniya va banklari vakillari bilan davra suhbatini o‘tkazadi.

O‘ZA

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGA KO‘TARILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-mart kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonni tavallud kuni bilan samimiy tabrikлади.

Mamlakatimiz yetakchisi BAA Prezidentiga mustahkam sog‘liq va farovonlik, davlatchilik faoliyatida katta muvaffaqiyatlar, do‘st Amirliklar xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi. Davlat rahbarlari butun musulmon ummati uchun muqaddas bo‘lgan Ramazon oyi munosabati bilan ham bir-birlarini samimiy qutladilar.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyida BAAga amalga oshirgan tashrifi ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochib, ularni strategik sheriklik darajasiga ko‘targani alohida ta’kidlandi. Erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish uchun alohida “yo‘l xaritasi” qabul qilindi.

Yetakchilar O‘zbekiston bilan BAA o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik, eng avvalo, savdo-iqtisodiy

va investitsiyaviy sohalarida jadal rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar. Tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi, qo‘shma korxonalar soni izchil o‘rtib bormoqda.

Bugungi kunda 20 milliard dollarlik loyihalar portfelidir doirasida Amirliklarning yetakchi kompaniyalari bilan “yashil” energetika, raqamlashtirish, sun‘iy intellekt, shaharsozlik va infratuzilma, turizm, xususiy biznes kabi muhim yo‘nalishlarda faol hamkorlik qilinmoqda.

Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” muloqotining ikkinchi sammitini o‘tkazish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

O‘zbekiston — Fransiya: UMUMIY TARAQQIYOT VA RAVNAQQA ERISHISH BO‘YICHA HAMKORLIK

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Prezident Emmanuel Makronning taklifiga binoan 11-mart kuni davlat tashrifi bilan Fransiya bordini.



Fransiya rivojlangan industrial-agrar mamlakat bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Iqtisodiy salohiyat bo‘yicha Fransiya jahonning eng rivojlangan yetti davlati qatoriga kiradi. U yadroviy davlat va BMT Xavfsizlik kengashining besh doimiy a‘zosi dan biri, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va xalqaro maydonda muhim o‘ringa ega.

Fransiya O‘zbekiston mustaqilligini 1992-yil 3-yanvarda tan olgan va mamlakatlarimiz o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 1-martda o‘rnatilgan. 1993-yil 27-oktabrda “Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida”gi shartnoma imzolaniishi bilan munosabatlarning keyingi dinamikasi mustahkamlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil oktabr va 2022-yil noyabrda Fransiya rasmiy

tashrifi, shuningdek, Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning 2023-yil noyabrda mamlakatimizga tashrifi barcha sohalaridagi siyosiy muloqot va hamkorlikni izchil rivojlantirishga yangi sur‘at bag‘ishladi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil noyabrda Parijga tashrifi chog‘ida ikki davlat rahbarlari yuqori darajadagi har tomonlama sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga kelishib olgan edi.

O‘zbekiston bilan Fransiya o‘rtasidagi idoralararo darajadagi hamkorlik keng yo‘nalishlarni qamrab oladi. 2023-yil 2-noyabrda ikki davlat rahbarlari ishtirokida ta’lim, madaniy meros va ichimlik suv ta’minoti infratuzilmasini yaxshilash sohalariga oid qator kelishuvlar imzolandi.

Davomi 2-betda

Bugunning gapi

Bir paytlar oliygohga o‘qishga kirish ko‘pchilik uchun yetib bo‘lmas orzu edi. Aksariyat hollarda bilimli yigit-qizlar emas, balki tanish-bilishi borlar talaba bo‘lardi. Oliy ta’limga kirishdagi 1-avgust “operatsiya”lari ham barchamizning esimizda. Kirish imtihonlarida yuqori ball olish “tizim”i shunchalar zo‘r yo‘lga qo‘yilgandiki, vaqti kelib uning yo‘qolishiga, to‘g‘risi, hech kim ishonmasdi.

ADOLAT VA SHAFFOFLIK — USTUVOR QADRIYAT KORRUPSIYANI ILDIZI BILAN YO‘QOTISHNI TA‘LIMDAN BOSHlash ZARUR

Biroq davlatimiz rahbarining kuchli siyosiy irodasi bu “katta bozor”ni chilparchin qildi. Oliy o‘quv yurtiga kirish ushalmas orzu emas, bilim asosida baholanadigan haqiqiy imkoniyatga aylandi. Avvallari ko‘pchilik faqat pul va tanish-bilish orqali o‘qishga kira olish

mumkin deb o‘ylardi. Lekin so‘nggi yillarda qabul jarayoniga kiritilgan shaffoflik, adolati baholash tizimi va korruptsiyaga qarshi kurashish choralarini bu tasavvurni tubdan o‘zgartirdi.

Davomi 3-betda

Yangicha yondashuvlar STARTAPLAR LABORATORIYASI G‘OYALAR LOYIHALARGA AYLANMOQDA



Davr yoshlari innovatsiyalar, g‘oya va tashabbuslarning bitmas-tuganmas manbaidir. Bugungi kunda yoshlar faolligi har qachongidan ham muhim, zero, ular jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuchdir. Kelajagimiz egalarining orzu-intilishi, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlatimiz siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, bu yo‘lda ulkan ishlar qilina yotganiga guvohmiz. Xususan, ularni ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatga keng jalb etish, iqtidorli, tashabbuskor yoshlarning o‘z intellektual salohiyatini namoyon qilishi uchun sharoitlar yaratishga, startap loyihalarni rivojlantirish va amalga oshirishga katta e’tibor qaratilayotir. Iqtidorli yoshlarni kashf etishda hududlardagi Yoshlar texnoparklari muhim ahamiyat kash etmoqda.

Nukus yoshlar texnoparki 2022-yil tashkil etilgan. Oradan qisqa muddat o‘tganiga qaramay, 3,5 mingdan ortiq yoshni qamrab oldi. Laboratoriyada ilmiy izlanishlar qilinib, yangi modda yaratiladi yoki biror mahsulot tekshiruvlardan o‘tkaziladi, tarkibi o‘rganiladi. Maqolada biz sizga tanishtirmoqchi bo‘lgan ushbu texnoparkni startaplar laboratoriyasi deyish mumkin. Sababi 2023-yilning o‘zida texnopark a‘zolari tomonidan shakllantirilgan 18 ta loyiha davlat grantlarini yutib olib, amaliyotga joriy

etilgan, 13 ta loyihaning prototipi yaratilgan. Xo‘sh, bu muvaffaqiyatlarning siri nimada? Texnoparkda jami 13 xodim faoliyat yuritadi. Zamonaviy kompyuter to‘plamlari, bepul internet, 3D printer, arduino va lego qurilmalari, shuningdek, o‘z loyihalari ustida ishlash uchun kovorking hudud mavjud. Iqtidorli, innovatsiya sohasiga qiziquvchilar xalqaro va ichki grantlarga yo‘naltirib boriladi, loyihalarning prototiplarini ishlab chiqishda amaliy yordam ko‘rsatiladi.

Davomi 5-betda

HAR BIR DARAXTNING BOG‘BONI BOR

Yashil makon

Farg‘ona viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan Karkidon suv ombori atrofida minglab gektar yer asrlar davomida ko‘pning e’tiboridan chetda qoldi. Suv yo‘qligi bahonasida shu kunga qadar biron tup nihol o‘tqazilmadi.

Tuya o‘rkachli poyonsiz kengliklar, baland-past, tosh-shag‘aldan iborat, ko‘z ilg‘amas dala-dashtlar qarovsiz, kimsasiz hududga aylandi...

Quva tumanidagi Karkidon suv ombori inshooti qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 1967-yili qurilgan. Unga suv Isfayram soyi va Janubiy Farg‘ona kanalidan kelib quyiladi. Inshootning to‘liq hajmi 216 million kub metrni tashkil etadi. Maksimal chuqurligi 70 metr.

Davomi 4-betda

Sharh EKOLOGIK EKSPERTIZA

YANGI QONUN NORMALARI TABIAT MUSAFFOLIGINI TA‘MINLASHGA QANDAY TA‘SIR QILADI?



Mamlakatimizda global iqlim o‘zgarishlari keskinlashuvidan kelib chiqqan holda atrof-muhit muhofazasi masalalariga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda.

O‘tgan yillarda sohaning mukammal tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Har bir ekologik tadbirning moliyaviy manbalari aniqlandi. Suv, yer, bioxilma-xillik resurslari va atmosfera havosi muhofazasini ta’minlashga yo‘naltirilgan konsepsiya va strategiyalar ishlab chiqildi. Ularda belgilangan vazifalarni amalga

oshirish hisobiga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni keyingi 5 yilda 8-14 foiz, o‘rmon fondidagi yer 12 foiz kengaytirildi. Birgina Orol dengizining qurgan 2 million gektarga yaqin maydonida yashil qoplamalar barpo etildi.

Davomi 4-betda

O‘zbekiston — Fransiya:

UMUMIY TARAQQIYOT VA RAVNAQQA ERISHISH BO‘YICHA HAMKORLIK



Boshlanishi 1-betda

Bundan tashqari, 2023-yil 2-noyabrda tashrif chog‘ida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan muloqotda munosabatlarni strategik sherkilik darajasiga ko‘tarish niyati e‘lon qilgan edi. “Yashil” energetika ishlab chiqarish, xomashyo qazib olish va qayta ishlash, innovatsion qishloq xo‘jaligi, suv ta‘minoti, logistika, infratuzilmani rivojlantirish va turizm sohaslarida yangi yirik loyihalarni ilgari surish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Parlamentlararo hamkorlik delegatsiyalar almashinuvi, ikki mamlakat parlamentlaridagi do‘stlik guruhlar faoliyati, parlamentlararo birlashmalar va ko‘p tomonlama parlament tuzilmalari tomonidan tashkil etilayotgan xalqaro tadbirlarda ishtirok etish orqali izchil rivojlanmoqda. O‘zbekiston va Fransiya parlamentariylarining o‘zaro hamkorligi tajriba almashish, global va mintaqaviy muammolarni muhokama qilish, shuningdek, ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston va Fransiya Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazilmoqda. Uning o‘n beshinchi davrasi 2024-yil 27-mayda bo‘lib o‘tdi. Unda ikki davlat diplomatlari O‘zbekiston — Fransiya munosabatlarning bugungi holati, oliy darajadagi o‘zaro tashriflar chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini kengaytirish masalalarini muhokama qildilar. Xalqaro va mintaqaviy muammolar, shuningdek, turli darajadagi bo‘ljaj qo‘shma tadbirlar jadvali va kun tartibi yuzasidan fikr almashdilar.

O‘zbekiston va Fransiya BMT, EXHT kabi xalqaro tuzilma va tashkilotlar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmog‘da. Ikkala tomon global va mintaqaviy darajada xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shish istagini yana bir bor tasdiqlaydi. Fransiya O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda ishonchni mustahkamlash, Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish, shuningdek, Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sherkilik va hamkorlik to‘g‘risidagi yangi bitimni tezroq

imzolash borasidagi sa‘y-harakatlarini yanada qo‘llab-quvvatlashga tayyor.

Ikki davlat savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor. O‘zbekistonda yaratilgan qulay ishlabarmonlik muhiti va sarmoyaviy imkoniyatlar fransuz biznesi vakillarini tobora ko‘p jalb qilmoqda. O‘z navbatida, O‘zbekiston Fransiya texnologiyalarini jalb etish, sanoat va ishlab chiqarish sohaslarida ilg‘or tajribalardan foydalanish, o‘zaro sayyohlik almashinuvi kengaytirishdan manfaatdor. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqining “GSP+” imtiyozli tizimining benefitsiari maqomini olgani savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. 2024-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi o‘tgan yilga nisbatan qariyb 14 foiz oshib, salkam 1,2 milliard dollarga yetdi. Bugun mamlakatimizda fransuz sheriklar ishtirokidagi 50 ta korxona, jumladan, 23 tasi 100 foiz fransuz kapitali bilan faoliyat yuritmoqda.

“Total Eren”, “Veolia”, “EDF”, “Orano”, “Lactalis”, “Carrefour” va “Shiever” kabi kompaniyalar O‘zbekistonda energetika, geologiya-qidiruv, oziq-ovqat sanoati va chakana savdo sohaslarida faol ishlayapti. Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) O‘zbekistonda shahar infratuzilmasi, “yashil iqtisodiyot”, sanitariya, gidroenergetika va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish loyihalarida ishtirok etadi. 2022-yil noyabrda FTA bilan 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi imzolangan bo‘lib, u 1 milliard yevrolik loyihalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

2023-yil noyabrda Samarqandda va 2024-yil may oyida Parijda Fransiya kompaniyalarining 60 nafar rahbari ishtirokida o‘tkazilgan O‘zbekiston — Fransiya biznes-forumlari hamda Fransiyaning “MEDEF International” tadbirkorlik harakati bilan ikki tomonlama biznes-forum, shuningdek, ular natijasida imzolangan kelishuvlar ishlabarmonlik hamkorligini kengaytirishdan o‘zaro manfaatdorlik yuqori ekanini yana bir bor tasdiqladi.

2024-yil 4-iyun kuni Parij shahrida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo

komissiyaning 10-majlisi bo‘lib o‘tdi. U ishlabarmonlik aloqalarini mustahkamlash va kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu platformadagi muloqot hamkorlikning o‘zaro manfaatli yangi yo‘nalishlarini aniqlash, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollari muhokama qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston va Fransiya madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlash, madaniyatlararo

2022-yil noyabrda mashhur Luvr muzeyida O‘zbekistonning boy madaniy merosiga bag‘ishlangan “O‘zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo‘llari chorrahasida” ko‘rgazmasining ochilishi madaniyat sohasidagi o‘zbek-fransuz hamkorligi tarixidagi yorqin voqea bo‘ldi. 2023-yil martigacha davom etgan ko‘rgazmada O‘zbekistondagi 16 ta muzeydan olib

Ipak va oltin mo‘jizalari” ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Muvaqqiyatli o‘tkazilgan ushbu yirik madaniy tadbirlar Fransiya va xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholandi.

Shu bilan birga, 2023-yil sentabrda “Abu Rayhon Beruniy. Geografik va intellektual sayohatlar” mavzusidagi ko‘rgazma ham yevropaliklarning e‘tiborini tortdi hamda O‘zbekistonning ilmiy merosini yana bir karra keng targ‘ib qilish imkonini berdi.

Ta‘lim va fan sohasida, ayniqsa, O‘zbekiston ta‘lim muassasalarida fransuz tili va adabiyotini o‘rganish borasida hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ayni paytda mamlakatimizdagi 602 ta maktabda 141,3 mingdan ortiq o‘quvchi, shuningdek, 11 ta OTMDa 15 ming talaba fransuz tilini o‘rganmoqda.

2018-2023-yillarda ta‘lim sohasida turizm, arxeologiya, dizayn va moda, fransuz filologiyasi, aviatsiya, inklyuziv ta‘lim, biznesni boshqarish, energetika, siyosatshunoslik, aviatsiya va boshqa yo‘nalishlarda 50 dan ortiq shartnoma va memorandum imzolangan.

2019-yilda Toshkent qo‘qimachilik va yengil sanoat institutida Parij xalqaro moda akademiyasining qo‘shma fakulteti ochildi. Buxoro davlat universitetida turizm va mehmondo‘stlikni boshqarish bo‘yicha “Vatel” biznes maktabining filiali ochildi, Toshkent davlat transport universitetida 3D modellashtrish bo‘yicha O‘zbekiston — Fransiya innovatsion markazi faoliyat ko‘rsatmoqda. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab Toshkent davlat transport universitetida Fransiya fuqaro aviatsiyasi milliy maktabi bilan hamkorlikda fuqaro aviatsiyasi uchuvchilarini tayyorlash maktabi faoliyat yuritmoqda.

2023-yil noyabrda Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning O‘zbekistonga tashrifi doirasida Samarqand shahrida “Fransiya alyansi”ning ikkinchi filiali ochildi.

O‘z navbatida, Sorbonna universiteti huzuridagi Milliy Sharq tillari va sivilizatsiyalari institutida o‘zbek tili kurslari ochildi va u Fransiya o‘zbek madaniyatini targ‘ib etishga xizmat qilmoqda.



Hakim YO‘LDOSHEV olgan surat.

TA‘LIM VA FAN SOHASIDA, AYNIQSA, O‘ZBEKISTON TA‘LIM MUASSASALARIDA FRANSUZ TILI VA ADABIYOTINI O‘RGANISH BORASIDA HAMKORLIK MUVAFFAQIYATLI RIVOJLANMOQDA. AYNI PAYTDA MAMLAKATIMIZDAGI 602 TA MAKTABDA 141,3 MINGDAN ORTIQ O‘QUVCHI, SHUNINGDEK, 11 TA OTMDA 15 MING TALABA FRANSUZ TILINI O‘RGANMOQDA.

muloqotni rivojlantirish, ta‘lim, fan va sog‘liqni saqlash sohaslarida hamkorlik qilishga intilmoqda. Bu esa ikkala madaniyatni boyitish va xalqlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilayotir.

kelingan 138 ta noyob ashyo, shuningdek, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSHning yirik muzeylaridan keltirilgan 31 ta eksponat o‘rin oldi. Ushbu ko‘rgazma bilan bir vaqtda Arab dunyosi institutida “Samarqandga yo‘l.

SUV TA‘MINOTIDA “AQLLI” BOSHQARISH TIZIMI

Ijtimoiy tarmoqlardagi bir xabar e‘tiborinni tortdi. Unda 2030-yilga borib, bir litr suv xuddi shu hajmli benzindan qimmatroq bo‘lishi bayon etilgan. Bu taxmin. Lekin bugun dunyoda kechayotgan ekologiya va iqlim o‘zgarishlaridan xulosa qilish mumkin, buni 2030-yilda bo‘lmasa ham tez orada ko‘radiganga o‘xshaymiz.



Suvni to‘g‘ri va tejamkorlik bilan sarflash nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyoda dolzarb masalaga aylangan. Chunki suv iste‘moli yildan yilga ortib bormog‘da, zaxiralari esa cheksiz emas. Bularning barchasi dunyoning aksariyat mamlakatlarida suv resurslarini boshqarishga eng yangi va yuqori samara beradigan texnologiyalarni jalb etishni taqozo qilmoqda.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko‘ra, hozir Yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. 2030-yilga borib, mamlakatimizda ham suv tanqisligi kuzatilishi hamda buning oqibatida O‘zbekiston dunyodagi suv tanqis bo‘lgan 33 davlat qatoriga tushib qolish ehtimoli yo‘q emas.

2025-yil yanvar oy holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining 81 foizi markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlangan. So‘nggi olti yilda ichimlik suv ta‘minotini yaxshilashga 10 trillion so‘mga yaqin mablag‘ sarfandi. Ushbu mablag‘ hisobidan 1176 ta suv inshooti, 20,8 ming kilometr ichimlik suv tarmog‘i tortildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish borasida qator vazifalar belgilangan. Xususan, suv tejoychi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning yillik quvvatini 300 ming gektarga yetkazish, barcha ichimlik suv iste‘molchilariga hisoblagichlar o‘rnatishni ta‘minlash, ichimlik suv sifati, ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi, suv ta‘minoti va kanalizatsiya korxonalarini samaradorlik ko‘rsatkichlarini joriy etish masalalari shular jumlasidan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham bu vazifalar o‘z aksini topdi. Joriy yilda sarflanayotgan suvning hisobi va hisoboti to‘liq yuritilishini ta‘minlash maqsadida magistrat kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimi joriy etilishi, 1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmog‘i, 77 ta ichimlik va oqova suv inshooti qurilishi hamda rekonstruksiya qilinishi belgilangan.

Eng muhimi, ichimlik suv tizimida ma‘nan eskirgan 746 ta nasos uskunasi energiyatejamkorlariga almashtiriladi, hududlarda 65,2 megavatt quvvatga ega quyovsh panellari, suv inshootlari va magistrat suv tarmoqlariga 955 ta zamonaviy suv hisoblagich o‘rnatiladi va barcha ichimlik suv ta‘minoti korxonalarida sifat monitoringini yuritish va ma‘lumotlarni boshqarish markazlari yaratiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan joriy yil 28-fevral kuni imzolangan “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Iqlim texnologiyalari orqali suv resurslarini boshqarishni rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror ana shu maqsadlarga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Mazkur qarorda qator maqsadlar, moliyaviy resurslar, imtiyozlar nazarda tutilmoqda. Xususan, ichimlik suvning aniq hisobini yuritish uchun yirik suv inshootlari va magistrat quvurlarga 4,8 mingta hisoblagich hamda 2,8 mingta telemetriya tizimi o‘rnatiladi. Shuningdek, 12,7 mingta suv inshooti hamda 80 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmog‘ining raqamli xaritasini (GIS) joriy etish orqali infratuzilmani yangilash ishlari samaradorligini oshirish nazarda tutilmoqda.


Shu bilan birga, suv ta‘minotida “aqlli” boshqarish tizimini joriy etish orqali yo‘qotishlar darajasini kamaytirish, 5,1 million iste‘molchini

L.XAYRULLAYEV,
jurnalist

IFTORLIK VA SAHARLIKLAR DABDABADAN, RIYODAN XOLI BO‘LSIN

Munosabat

Har yili Ramazon oyini ko‘tarinki ruhda kutib olamiz. Bu oyda mo‘min-musulmonlarning mehri va saxovati, muruvvati va futuvvati jo‘sh uradi. Muqaddas islom dini ta‘limotiga muvofiq, kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan, ehtiyojmand oilalar holidan xabar olinib, ularga xayru saxovat ko‘rsatiladi.



Prezidentimizning shu yil 27-fevraldagi “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan bu oyi sharif “Ramazon — saxovat, birdamlik va bag‘rikenglik oyi” g‘oyasi asosida mamlakatimiz bo‘ylab yuqori saviyada o‘tkazilmoqda.

Ramazonda ro‘za tutishning hikmati ko‘p. Chunki Alloh taolo ro‘za tutish uchun ushbu oyni tanlagan. Bu oyda Qur‘on nozil bo‘lgan. Oyati karimada bunday marhamat qilinadi: “Ey imon keltirganlar! Sizlardan oldingi (ummat)larga farz qilingani kabi sizlarga ham ro‘za tutish farz qilindi, shoyad (u sababli) taqvoli bo‘lsangiz. Sanoqli kunlarda” (Baqara surasi, 183-184-oyatlar).

Ro‘za Odam alayhissalomdan to Muhammad alayhissalom davrigacha o‘tgan barcha payg‘ambar va ummatlarga farz qilingan. Lekin ro‘za tutishning shart va qoidalarini turlicha bo‘lgan. Ba’zi ummatlar Ramazon oyi yozning issiq kunlariga to‘g‘ri kelib qolsa, Allohdan yoki Uning payg‘ambaridan beijozaat shakkoklik ila uni boshqqa oylarga ko‘chirib, bu qilmishlarining jarimasi uchun o‘zlaricha yana o‘n kun qo‘shimcha ro‘za tutgan.

Halim bo‘lish, o‘zgalar bilan urishib-tortishmaslik, jahli chiqqan vaqtda ham o‘zini qo‘lga ola bilish ro‘zadomning odoqlaridan. Bu haqda payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bunday xabar berganlar: “Ro‘za qalqondir. Qachon birortangiz ro‘zador bo‘lsa, yomon gap gapirmasin, johillik qilmasin. Agar biron kishi u bilan urishsa yo uni haqorat qilsa: “Men ro‘zadorman, men ro‘zadorman”, desin”, dedilar” (Imom Abu Dovud rivoyati).

Hadisi sharifdagi “qalqon” deya tarjima qilingan “junnatun” kalimasi lug‘atda “to‘suvtchi”, “himoya qiluvchi” kabi ma‘nolarni anglatadi. Shunga ko‘ra, ulamolalar ushbu kalimadan qanday ma‘no ko‘zlangani haqida quyidagilarni aytganlar:



Abduqahhor domla YUNUSOV,
Toshkent shahri bosh imom-xatibi

“Nabiy alayhissalom ro‘zadomning yana bir sifatini ta‘kidlab, “johillik qilmasin”, deganlar. Shunga ko‘ra, ro‘zador birov urishib haqorat qilgan taqdirda ham “Men ro‘zadorman, men ro‘zadorman”, deyishi lozim”.

Yana ulamolalar bunday degan: “Inson bir narsadan uzluksiz bir oy o‘zini saqlasa, o‘sha narsa uning odatiga aylanib, mazkur muddatdan keyin ham doimo undan saqlanadigan bo‘lib qoladi”.

Ifitorlik va saharliklar ham dabdabadan, riyodan, xo‘jako‘rsindan xoli, Alloh uchun bo‘lishi kerak. Bizga har jihatdan namuna bo‘lgan zot — payg‘ambarimiz alayhissalom iftorlikda ho‘l, yangi yetilgan xurmo, agar u topilmasa, quruq xurmo bilan, mabodo u ham bo‘lmasa, bir necha ho‘plam suv bilan og‘iz ochar edilar.

Ro‘zaning juda ko‘p va turli-tuman foydalari bor. Birinchidan, ro‘za inson tanasini turli kasalliklardan asraydi. Chunki tanadagi ko‘p kasalliklar, asosan, me‘da va ichaklarda to‘planib qolgan chiqindilardan hamda ortiqcha semirib ketishdan paydo

Bundan tashqari, keyingi yillarda Toshkent va Parijda ta‘lim forumlari o‘tkazildi. O‘zbekistonga Fransiyaning Gavr-Normandiya universiteti, Parij-Saklay universiteti va “Parij Pantheon-Assas” universitetlari delegatsiyalari keldi.

Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish doirasida Samarqand va Lion, Buxoro va Ruey-Malmeson shaharlari, Jizzax viloyatining Zomin tumani va Floyr shahri o‘rtasida birodarlik aloqalari o‘rnatildi.

Fransiya Tibbiyot akademiyasida Abu Ali ibn Sino byusti o‘rnatilgan. Shuningdek, Ruey-Malmeson, Tuluza, Grets-Armenvil shaharlarida ikki davlat xalqlari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni timsoliga aylangan Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va Abu Rayhon Beruniy haykallari o‘rnatildi va “O‘zbek bog‘lari” barpo etildi.

Ilmiy hamkorlik haqida so‘z borganda, temuriylar davri san‘ati va tarixini o‘rganish assotsiatsiyasi hamda “Avisenna-Fransiya” uyushmasining Fransiyaadagi faoliyatini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. Bu uyushmalar O‘zbekiston madaniy va ilmiy merosini o‘rganish hamda uni Fransiya jamoatchiligi orasida keng targ‘ib qilishga katta hissa qo‘shayotir.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi hamkorlik izchil kengaymoqda. 2022-yil martida O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi Parij markaziy shifoxonalari tarmog‘i “AP-HP” bilan shoshilinch tibbiy yordam, pediatriya, ginekologiya, gematologiya va onkologiya sohaslarida hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzoladi.

2023-yil sentabrda O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi delegatsiyasi Parij shahrida bo‘lib o‘tgan “French Healthcare Innovation&Business Forum”da ishtirok etib, uning doirasida tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi va uning yakunlari bo‘yicha tegishli shartnomalar imzoladi.

Fransiya ham o‘zbek sportining an‘anaviy turi — milliy kurashga qiziqish juda yuqori. Xususan, 2022-2023-yillarda Parij shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun kurash bo‘yicha ikkita xalqaro turnir o‘tkazildi.

Bugun O‘zbekiston—Fransiya munosabatlari jadal rivojlanib, siyosat va iqtisodiyotdan tortib, fan, madaniyat va ta‘limga baho‘lgan keng ko‘lamli sohalarni qamrab olgan. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik tarixidagi muhim voqea bo‘lib, tashrif davomida ilgari suriladigan yangi tashabbus va imzoladigan kelishuvlar ikki tomonlama sheriklikni yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

Bugunning gapi

ADOLAT VA SHAFFOFLIK —
USTUVOR QADRIYATKORRUPSIYANI ILDIZI BILAN
YO‘QOTISHNI TA’LIMDAN BOSHLAGH ZARURQo'ng'iro'tboy SHARIPOV,
oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vaziri

Boshlanishi 1-betda

Hozir test sinovlari maxsus kuzatuv kameralari ostida o'tkaziladi. Auditoriyalarga begonalarning kirishi cheklangan. Har bir abituriyentning natijasi avtomatik tarzda hisoblanadi. Eng muhimi, barcha uchun teng imkoniyat yaratilib, bilimlilar o'z salohiyatini namoyon eta oladigan muhit shakllantirildi. Bugungi yoshlar o'z bilim va mehnati bilan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi mumkinligiga ishonayotgani bu — islohotlarning eng katta yutug'i, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'lim sohasi raqamlashib, imtihonlar shaffoqlashdi, adolat mezonlari ustuvor ahamiyat kasb etdi. O'rtiq tanish-bilishchilik yoki yo'l topish haqida o'ylashga zarurat qolmadi. O'tgan yili joriy etilgan "avval test, keyin tanlov" tizimi esa oliy ta'lim olish imkoniyatini yanada kengaytirdi. Endi abituriyentlar oldin test topshirib, bilimiga ko'ra ball to'playdi va keyin shu natija asosida o'ziga mos OTM tanlaydi. Bu tizim abituriyentlarga keng tanlov berish barobarida adolati ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yuqori ball to'plagan har bir yosh teng imkoniyat asosida davlat grantiga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, kamroq ball olganlar to'lov-kontrakt asosida ta'lim olish yo'lini tanlaydi.

Albatta, ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga hali ham ehtiyoj bor. Joriy yil 5-mart kuni davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan

yig'ilishida ham aynan shu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz islohotlar hal qiluvchi bosqichga qadam qo'yayotgan bugungi sharoitda mamlakatimizda korruptsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilinayotgan ishlarga baho berib, kelgusi ustuvor vazifalarni aniq belgilab olish zarurligini ta'kidladi.

Korruptsiya — jamiyatning ichiga tushgan qurt. U kelajakda meva berishi kerak bo'lgan kurtaklarni quritadi. Davlatimiz bu illatni tamoman yo'qotishga azmu qaror qilgan. Bundan buyon farzandlarimizga ta'lim berish barobarida korruptsiyaning eng mayda alomatlaridan xoli bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Bu, eng avvalo, talaba va o'quvchilarning imtihonlarda ko'chirmakashliklarga befarq bo'lmasligi, bu illatga qarshi murosasizligidan boshlanadi.

Xorijiy tajribaga ko'ra, ta'limda korruptsiyaga qarshi kurashish huquqiy choralar bilan birga jamiyat ongini o'zgartirishga ham bog'liq. Imtihonlar aniq qoidalar asosida o'tkazilib, talabalardan akademik halollik qat'iy talab qilinishi shart. Yoshlarimizda korruptsiyaga qarshi immunitet shakllantirsa, halollik madaniyatini milliy madaniyatimizga aylantirsa, o'quv jarayonida har qanday aldov yoki noqonuniy yo'llarga murosasizlikni tarbiyalasak, jamiyatimizda adolat va shaffoqlik ustuvor qadriyatga aylanadi.

Ta'lim tizimida korruptsiyaga qarshi kurash faqat jazo choralar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Masalan, Singapur va Kanada kabi davlatlarda akademik halollikni targ'ib qilish maktab va universitetlar darajasida keng joriy etilgan. Talabalarga adolatli raqobat muhiti yaratilib, bilimni xolis baholash tizimi takomillashtirilgan. Shu bilan birga, o'quvchilar o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi tushunishi uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

Buyuk Britaniya hamda AQSHda esa talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ochiq mulohazotni ta'minlash uchun maxsus platformalar yaratilgan. Bu tizimlar orqali talabalar imtihon jarayonida yoki baholashdagi adolatsizlikni anonim tarzda xabar qilishi mumkin. Bunday yondashuv ta'lim tizimini hech qanday aralashuvsiz, haqiqiy bilimga asoslangan holda shakllantirishga yordam beradi.

Biz ham yoshlar ongida korruptsiyaga qarshi murosasizlikni shakllantirishimiz, bilim va salohiyat haqiqiy qadriyatga aylanishi uchun ta'lim tizimida islohotlarni izchil davom ettirishimiz shart. Bu yo'lda nafaqat davlat, balki ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning har bir a'zosi o'z mas'uliyatini his qilishi juda muhim. Shundagina korruptsiyadan xoli, adolat

va shaffoqlikka asoslangan ta'lim tizimini yaratishimiz mumkin.

Oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayoni keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Bu esa abituriyentlar, talabalar va professor-o'qituvchilar uchun qulaylik yaratish bilan birga ta'lim jarayonida shaffoqlikni

imtihon natijalari bo'yicha apellyatsiya berish mexanizmi joriy etildi.

Kasbiy (prof.edu.uz) va o'rta maxsus ta'lim (emis.edu.uz) muassasalarida ham ma'muriy jarayonlar axborot tizimlari orqali boshqarilmoqda. Talabalarga elektron shartnomalar taqdim etish, onlayn to'lovlar

elektron kuzatuv tizimini joriy etish ishlari bajarildi.

Bundan tashqari, stipendiya tayinlash va to'lash jarayoni to'liq raqamlashtirilib, inson omili aralashuvi yo'q qilindi. Elektron shartnomalarni verifikatsiya qilish orqali byurokratik jarayonlar sezilarli darajada qisqardi.



ta'minlashga xizmat qilmoqda. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda uning tarmog'ida 36 ta axborot tizimi ishlab chiqilgan. Mazkur tizimlar OTM, litsey, kasbiy va oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul jarayonini to'liq raqamlashtirish imkonini berdi. Jumladan, my.edu.uz va my.uzbmb.uz axborot platformalari orqali abituriyentlar o'z hujjatlarini onlayn topshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa vaqt va mablag'ni tejash, byurokratik to'siqlarni qisqartirishga olib keldi.

Shuningdek, ta'lim jarayonini samarali boshqarish maqsadida Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi — HEMIS joriy etildi. Bu tizim 35 turdagi statistik ma'lumotlarni raqamlashtirishga yordam berdi. Guruh jumallari, o'lashtirish qaydnomalari, dars va imtihon jadvallari, diplom va akademik ma'lumotlar, talabalar hamda professor-o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar yagona platformada saqlanadi. Bundan tashqari, HEMIS takomillashtirilib, talabalar uchun davomat va

va monitoring yuritish uchun EduBilling axborot tizimi ishga tushirildi. Bu tizim orqali shartnomalar faqat elektron shaklda olinadi. Natijada tayyorlash vaqti 70 foiz qisqardi, byurokratik jarayonlar esa 90 foiz kamaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida bilimlarni nazorat qilish va baholash tizimi Blind assessment usulida yo'lga qo'yildi. Bu usul talabalarning bajargan ishlarini kodlash orqali baholash jarayonida shaffoqlik va xolislikni ta'minlaydi. Diplom ma'lumotlarini yagona baza (diplom.edu.uz) orqali tekshirish imkoniyati yaratildi. 1991-2020-yillarda berilgan 1,5 milliondan ortiq diplomning 84 foizi raqamlashtirildi.

Talabalar va ota-onalari uchun onlayn to'lov tizimi joriy etildi. Click, Payme va Zoomrad orqali kontrakt to'lovi, stipendiya ma'lumotlari va ijara shartnomalari to'liq raqamlashtirildi. Yotoqxonalar o'rinlarini shaffof va avtomatlashtirilgan tarzda taqsimlash, talabalarning joylashuvi bo'yicha

“Korruptsiyadan xoli, halollik tamoyillariga asoslangan o'qitish tizimi esa kuchli davlat, kuchli iqtisodiyot hamda kuchli jamiyatni shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib qoladi. Bugun qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan tashabbuslar esa kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ta'lim tizimida bu kabi raqamlashtirish ishlari korruptsiyani kamaytirish, byurokratik to'siqlarni yo'q qilish va ta'lim jarayonlarini yanada shaffoqlashtirishga xizmat qilmoqda. Elektron hujjat aylanmasi, onlayn monitoring va avtomatlashtirilgan baholash tizimi orqali talabalar uchun teng imkoniyat yaratilib, ta'lim tizimi xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar va o'qituvchilar uchun qulayliklarni oshirish maqsadida "Registrator ofis"lar tashkil etildi. Bu innovatsion yondashuv "Yagona darcha" tamoyili asosida ishlab, 30 turdan ortiq xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Endi talabalar o'quv jarayoni bilan bog'liq turli ma'muriy masalalarni bitta ofis orqali oson va tez hal qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Yangi tizimning asosiy maqsadi byurokratik to'siqlarni kamaytirish va inson omili aralashuvsiz xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishdan iborat. Shu sababli kelgusida

"Registrator ofis"lar orqali avtomatlashtirilgan xizmatlar soni bosqichma-bosqich ko'paytirilishi rejalashtirilgan. Bu esa talabalar vaqtni tejash, jarayonlarni shaffoqlashtirish va ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jarayoni jadal davom etayotgan hozirgi davrda bu kabi tashabbuslar ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, talabalar uchun esa qulay muhit yaratish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Oliy ta'lim tizimida erishilgan natijalar bilan birga kamchiliklar ham yo'q emas. Ularni bartaraf etish uchun qator ishlarni bajarishni maqsad qilganmiz. Xususan, qo'shimcha to'lov asosida o'qishga qabul qilingan talabalarning bilim darajasini muntazam tahlil qilish, imtihon natijalarini qat'iy nazoratga olish ularning o'quv jarayoniga mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv bilim darajasini ko'tarish bilan birga ta'limdagi xolislikni ta'minlashga ham yordam beradi. Shu bilan birga, OTMlarda rahbar-xodimlarning rotatsiya qilinishi tizimda yangi fikr va yondashuvlarni shakllantirish, boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor-o'qituvchilarni lavozimlarga ishga qabul qilish jarayonini raqamlashtirish, tanlovlarning shaffof va ochiq o'tishini ta'minlash har bir nomzodga teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi. Ilmiy salohiyatga ega mutaxassislarning munosib lavozimga ega bo'lishi ta'lim tizimi rivojida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida korruptsiyaga qarshi raqamlashtirilgan reyting tizimini joriy etish orqali qaysi OTMda shaffoqlik va adolat ustuvor ekani aniqlanadi. Bu esa barcha oliygohlarni tizimdagi islohotlarni yanada samarali olib borishga undaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni to'liq ochiq va shaffof o'tkazish, barcha fuqarolarga uni onlayn kuzatish imkoniyatini berish muhim ahamiyatga ega. Bu talabalarga teng sharoit taqdim etish va har bir ishtirokchining bilimni munosib baholanishini ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, OTM rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilarning vakant lavozimlarga hujjat topshirish jarayonini raqamlashtirish adolatli tanlov tizimini shakllantirishni ta'minlaydi.

Talabalar va pedagog xodimlarning huquqiy ongi hamda madaniyatini oshirish, korruptsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda keng jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozim. Bu yo'nalishda muntazam tadbirlar tashkil etish, ma'rifiy loyihalarini amalga oshirish, korruptsiyaga qarshi targ'ib ishlarni kuchaytirish ta'lim tizimining umumi madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarning ota-onalari, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik vakillari ishtirokida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qilinayotgan ishlar haqida fakultetlarda "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlarini o'tkazish tizimida ishonchni mustahkamlaydi.

Oliy ta'lim tizimi jamiyatning tayanchi va taraqqiyotning muhim bo'g'inidir. Ushbu tizimda adolat va shaffoqlik ta'minlansa, ilmfan va ta'lim yanada rivojlanadi, mamlakat taraqqiyotiga asos bo'ladi. Korruptsiyadan xoli, halollik tamoyillariga asoslangan o'qitish tizimi esa kuchli davlat, kuchli iqtisodiyot hamda kuchli jamiyatni shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib qoladi. Bugun qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan tashabbuslar esa kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

“RAQAMLI SUD” KONSEPSIYASI

SUD ISHLARINI YURITISHDA QOG‘OZ
SHAKLIDAN BUTUNLAY VOZ KECHILADI

Dolzarb mavzu

Sud-huquq tizimi har qanday davlatning barqarorligi, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlovchi asosiy ustunlardan biri. Odil sudlov ta'minlanishi fuqarolar huquqlarini himoya qilishning asosiy kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishga katta turtki beradi va davlat idoralariga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi. Eng asosiy, rivojlangan sud tizimi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qiladi va nizolarni adolatli hal etishga yordam beradi.

Ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir insonning ishi adolat mezonlari asosida ko'rib chiqilishi, albatta, mustaqil va odil sudlarga ishonchni oshiradi. Mustahkam huquqiy me'yorlar qulay investitsiya muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy nizolarni hal etish, xususiy mulkni himoya qilish va shartnoma majburiyatlarini bajarishning ishonchli mexanizmlari esa iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadigan jozibador biznes muhitini hosil qiladi.

Sud tizimi jinoyatchilik, korruptsiya va mansabni suiste'mol qilish kabi illatlarga qarshi kurashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shaffof va mustaqil sudlar qonunlarga qat'iy rioya qilish va jazo muqarrarlari, huquqbuzarliklar darajasini pasaytirish hamda jamoat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, globallashtiruv sharoitida bu tizimning xalqaro huquqiy me'yorlarga

muvofig takomillashtirish mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlaydi. Davlatimiz rahbari shu yil 27-fevral kuni sud faoliyatini yanada yaxshilash, ochiqlik va raqamlashtirish darajasini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda inson manfaatlarini, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan bu sohani takomillashtirish davlatimizning doimiy e'tiborida ekanini qayd etdi.

Yig'ilishda so'nggi yillarda odil sudlov sohasida amalga oshirilgan ishlar rahisob qilindi, — deydi Oliy sud raisi o'rinbosari Shuhrat Polvonov. — Shu bilan birga, odil sudlov sifati, fuqarolarning sudga ishonchini oshirish borasidagi rejalarimiz taqdimoti ham o'tkazildi. E'tibor qiling, so'nggi sakkiz yilda sudlarga doir 70 ga yaqin qonun, farmon va qaror qabul qilindi. Ularning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. Bular aholi va boshqorlarning masalalarini hal etib,



adolatni qaror toptirishga xizmat qilyapti. Bu jarayondagi eng muhim rejalarimizdan biri — sud faoliyatini raqamlashtirishni tezlashtirish. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa fuqarolar hamda tadbirkorlarga yanada yengillik va qulaylik yaratishdan iborat.

Bugun sudga ariza berish, sud ishini holatini kuzatish, sud hujjatlaridan elektron nusxa olish kabi 14 ta xizmat raqamlashgan. Oliy sudning my.sud.uz portalida xizmatlar va undan foydalanuvchilar soni ko'payib bormoqda. Shu paytgacha 17 millionga yaqin sud ishi axborot tizimlari orqali yuritilgan, 15,5 millionga ish sudyalarga inson omilisiz

taqsimlangan. 2024-yil 1-noyabrdan boshlab sudlarning ichki hujjatlar aylanmasi to'liq elektron shaklga o'tkazildi. Natijada qisqa davrda davlat byudjetidan 638 million so'mlik xarajatlar iqtisod qilindi.

Keyingi yillarda aholining huquqiy ongi va madaniyati oshib bormoqda. Buni birgina o'tgan yili sudlarda 3 milliondan ortiq masala ko'rib chiqilganidan ham ko'rish mumkin. Bu o'z-o'zidan sudlarda yuklamalar ortishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki, buning uchun raqamlashtirishni izchil davom ettirish, sudlar faoliyati samaradorligini oshirish zarur.

Endilikda sud ishlari yuritishda qog'oz shaklidan butunlay voz kechish maqsadida "Raqamli sud" konsepsiyasi amalga oshiriladi. Bu konsepsiya sudga kelgan fuqaroga muayyan da'vo turi bo'yicha sud muhokamasining taxminiy natijasi va ketadigan xarajatlarni oldindan aniqlab berish, huquqiy yordam bo'yicha virtual maslahatchini yaratish, tayinlangan jarimalarini onlayn kuzatish va elektron shaklda to'lash kabi qulay imkoniyatlar yaratadi. Sun'iy intellektidan foydalanib, bu kabi ko'plab yangiliklarni joriy etish mumkin.

Buning uchun Oliy sud huzurida Axborot texnologiyalari markazi tashkil etiladi. U sudlarga zarur bo'lgan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar yaratish, sun'iy intellektni joriy etish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Tadbirkorlik subyektlari bilan sudlar o'rtasida elektron ma'lumot almashish yo'lga qo'yiladi. Natijada ishlarni ko'rib chiqish tezkorligi oshadi.

Yana bir muhim jihat. Bugungi kunda iqtisodiy sudlar bir tarkibli bo'lib, tumanlararo sudlarda joylashgan. Mana shu tumanlararo sudlarni har bir viloyat markazida tashkil etish masalasi taklif etilyapti. Bundan ko'zlangan maqsad sudlar faoliyatini bir tizimga olib kelish orqali boshqaruvni yengillashtirish, yagona sud amaliyotini ta'minlash, sudyalarning o'rtasida ixtisoslashuvni amalga oshirishga qaratilgan.

— Vazirlik zimmasiga sohaga oid qonunlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, sudni yanada xalqchil qilish, tizimni moliyalashtirish bo'yicha qonunlar zarurati qayd etildi, — deydi adliya vaziri Akbar Toshqulov. — Xususan, qonunchilikni takomillashtirish borasida qonunlardagi turlicha talqin qilish, fuqarolar o'rtasida turli nizolarni keltirib chiqarish ehtimoli bo'lgan normalarni kamaytirish bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senat bilan hamkorlikda qator ishlarni rejalashtiryapmiz. Bundan tashqari, har yili sudlarda 1 millionga yaqin nizosiz ish ham ko'riylapti. Masalan, o'tgan yili fuqarolik sudlarida kommunal qarzdorlik bo'yicha 200

mingga yaqin shunday ish ko'rilgan. Aslida, buni notariyusda ham qilisa bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, nizosiz ishlarni ko'rib chiqishni tegishli idoralarga o'tkazish taklifi bildirildi.

Shunga asosan, tadbirkorlik, investitsiya, infratuzilma, yer, soliq, kredit, mehnat munosabatlari kabi eng ko'p uchrayotgan masalalarni tahlil qilib, har oyda hukumatga, har chorakda parlamentga taklif kiritib borish muhimligi ta'kidlandi.

Nizolarni muqobil hal etish, ya'ni mediatsiyaga o'tkaziladigan ishlarni ham xatlovdan o'tkazish va taklif tayyorlash belgilandi. Albatta, nizolashuvchi tomonlardan kimdir yutqazadi va kimdir yutadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bu tajriba juda muhim. Rivojlangan davlatlarda mediatsiya tizimida ikki tomonning kelishuvi asosida bitim tashqilandi. Eng muhimi, tadbirkor va fuqaro o'rtasida nizo bo'lmaydi va boshqa nizolar kelib chiqishining oldini oladi.

Adliya vazirligi tizimida odil sudlovni amalga oshirishga bevosita yordam ko'rsatadigan advokatura, sud ekspertizasi tizimlari mavjud. Vazirlik ham, o'z navbatida, mazkur tuzilmalarni raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Buning uchun tegishli axborot platformalari yaratilgan. Endi ular Oliy sud axborot tizimlari bilan integratsiya qilinadi. Masalan, sud ekspertizasi tayinlanadigan bo'lsa, butun jarayon elektron tarzda amalga oshiriladi. Xuddi shunday, advokatlarining sudga ishtirok etishi bilan bog'liq jarayonlar ham elektron shaklga o'tkazildi. Bu tizim tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda qisqa muddatlarda ishga tushiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, sud-huquq tizimining barqarorligi mamlakatdagi taraqqiyot kafolati. Shu bilan birga, izchil rivojlanishning asosi hamdir. Adolatli qonunlar, mustaqil sudlar va mukammal huquqiy mexanizmlar har bir fuqaroning qonuniy manfaatlarini izchil himoya qilindigan jamiyatni shakllantiradi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yashil makon

HAR BIR DARAXTNING BOG‘BONI BOR



Boshlanishi 1-betda

Suv ombori atrofida o‘zlashtirilgan 1,6 ming gektar adirlik bor. Undan shu kunga qadar maqsadli foydalanmay kelingan. Ilgari barpo etilgan dam olish maskanlari ma‘nan eskirgan, qarovsiz, tashlandiq holatga kelib qolgandi. Bog‘ barpo etish istagidagilar suv yetishmasligidan aziyat chekkan...

Prezidentimiz o‘tgan yili Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida Quva tumanidagi suv ombori atrofidagi 250 gektar maydonda ekoturizm majmuasi, 100 dan ziyod dam olish, savdo-servis va ko‘ngilochar maskanlar, zamonaviy mehmonxona barpo etish borasida ishga solinmagan imkoniyat borligi va undan unumli foydalanish yuzasidan kerakli ko‘rsatmalar bergandi.

Bu yerda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ulkan qurilish, bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari boshlanib ketdi. Sovuq etni juniktirsada, adirlikda ko‘chat ekish ishlari avjida. Ko‘chat ortib borayotgan mashinalar karvoni, bog‘bonlar harakati bir dam bo‘lsa-da, to‘xtangani yo‘q. Loyiha doirasida bu yerga 300 ming tupdan ortiq manzarali ko‘chat o‘tqazish, bog‘ barpo etish an‘anasi quloqchoy yommoqda. Ekilgan daraxtlar unib-o‘sishi uchun ariq ochilib, yo‘l bo‘yi yangicha hayot, ko‘rk, obodlikka yuz tutmoqda. Keng paykallarga go‘yo yashil poyandoz to‘shalgandek ko‘rkam, salobat baxsh etib turibdi.

— Qishlog‘imizga yangi hayot, ko‘tarinkilik, tashabbus kirib keldi, — deydi “Tolmozor” mahalla fuqarolar yig‘inida yashayotgan Baxtiyor Uzoqov. — Adirlikda bog‘ barpo etganimga 14 yildan oshdi. Ammo suv ta‘minotidagi taqchilik sabab ko‘p qiyinchilikka duch kelayotgandik. Endi hammasi ortda qoldi. Dala-dashlarni o‘zlashtirish borasida boshlangan tashabbus doirasida yangi quduqlar qazish, yo‘l va yo‘laklar yotqizish, mavjudlarini ta‘mirlash ishlari bajarilayapti. Tashabbusdan ruhlanib, 3,5 gektar yerda anor, behi, gilos bog‘lari yaratishga kirishdik, 15 ming tupdan ortiq olma, gilos, gulning sarxil ko‘chatlari yetkazib berish borasida ishlayapmiz.

Suv ombori hududida ish boshlagan Karkidon dam olish maskanida yo‘lga qo‘yilishi mo‘ljallangan loyihalar yaqin yillarda hudud manzarasini tom ma‘noda o‘zgartirib yuboradi. 24 gektar maydonda “Sokin hudud” dam olish maskanini bunyod etishga kirishildi. Shu maqsadda hududda yer va iqlim sharoitiga mos noyob manzarali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish ishlari jadal bajarilmoqda. “Yashil belbog‘” lami suv bilan muntazam ta‘minlash maqsadida 17 ta suv inshooti qazib, ekin maydonlarini tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimiga birlashtirilaypti.

— Bu yerda aholi dam olishi uchun mo‘ljallangan yangi maskanlar quriladi, — deydi Quva tumani hokimi Halimjon Umarov. — Zamonaviy mehmonxonalar bunyod etiladi, xorij tajribasi asosida gulzorlar yaratiladi. Hududda o‘ziga xos landshaft barpo etish maqsadida iqlim sharoitimizga mos dekorativ daraxt va butalar joylashtirilmoqda, samarasiz bog‘lar o‘rnida intensiv bog‘lar barpo

qilinadi. Yerga asosan yong‘oq, bodom kabi mevali daraxtlar ekiladi. Ularni sug‘orishda “Anor” nasos stansiyasi orqali tomchilatib sug‘orish yo‘lga qo‘yiladi. Suvni suv havzasini ham quriladi. Hududga kirishda yo‘lning ikki tomoni ko‘kalamzorlashtirilib, piyodalar yo‘laklari yotqiziladi. Lavandazorlar tashkil etilib, nafaqat farg‘onaliklar, balki xorijliklar uchun ham chin ma‘nodagi dam olish va turizm maskanlariga aylaniriladi. Ekilgan har bir daraxtning o‘z nomi, bog‘boni bor. Bu nav-nihollarni baravj rivojlantirish, suvsizlik va boshqa ta’sirlardan himoyalash imkonini beradi.

Avvallari bu yemning bir qismiga nasos yordamida suv olib chiqilgan. Suv inshootlarining quvvati mavjud ekin maydonlarini obi hayot bilan ta‘minlash imkonini bermagan. Shu bois, ish samaradorligini oshirish maqsadida “Tolmozor”, “Sharqiy arsi” nasos stansiyalarini ta‘mirlash, yangi quvvatlarini ishga solish hisobiga 2000 gektarga yaqin

Karkidon suv ombori hududida mehmonxona, motel, dam olish maskanlari, ko‘ngilochar va suv sporti obyektlari, restoran, plyaj zonasini qamrab olgan zamonaviy loyihalar amalga oshiriladi. Shu maqsadda yo‘l yotqizish va yo‘l ko‘rsatkichlari o‘rnatish, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatini tashkil etish borasida tizimli ishlar qilinmoqda.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar shahar va qishloqlarga fayz-baraka, musaffollik olib kirmoqda. Odamlar yaratuvchanlik ishlari bilan andamon. Hududlarda lola, kashtan, yapon saforasi singari manzarali daraxt ko‘chatlarini mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish, ninabargli daraxtlar va manzarali gul ko‘chatlari yetishtirish, turli ko‘paytirishga alohida e’tibor berilaypti. Ko‘chat ekish mavsumida narxlar barqarorligini ta‘minlash uchun yuzdan ortiq yarmarka va savdo shoxbochalarini tashkil etilib, ekiladigan daraxt navlarining manzilli dasturi



Sherzod QORABOYEV olgan suratlar.

— Yigirma sotix yerda ko‘chat yetishtiramiz, — deydi tomorgachi. — O‘tgan mavsumda 30 mingdan ortiq gul va mevali daraxt ko‘chatlari yetkazib berdik. Ayni kunda sarxil archa, na‘matak ko‘chatlari parvarishlayapmiz. Lola daraxti va limuza manzarali gul ko‘chatlari yetishtirishni yo‘lga qo‘yganimiz. Bu bir mavsumda 200 million so‘mdan ziyod daromad olish imkonini beradi.

ekin maydonini suv bilan ta‘minlash chorasi ko‘rildi.

— O‘tgan asrning 70-yillarida bu hududni o‘zlashtirish borasida sa‘y-harakatlar boshlangan. Ammo suv ombori o‘zaniga yaqin hududda odatiy mevali ko‘chatlar ekish bilan kifoyalanilgan, — deydi keksa bog‘bon Nurmuhammad Temirov. — Tepaliklarga suv olib chiqib, bog‘, dam olish maskanlari, sayilgohlar barpo etish imkonini topilmagan. Bugun mehnat qilaman deganga barcha sharoit va imkoniyatlar muhayyo. Bog‘dorchilik, obodonlashtirish uchun muhim bo‘lgan suv ta‘minoti yaxshilandi. Ayni kunda 3,5 gektar yerda intensiv usulda bog‘ yaratishga kirishdik. Bu oddiy mevali bog‘larga nisbatan ikki-uch hissa ortiq hosil beradi.

shakllantirildi. Har bir ko‘chatni ekish va parvarishlash bo‘yicha o‘ziga xos tavsiyalar berish yo‘lga qo‘yildi.

— “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida boshlangan ko‘kalamzorlashtirish ishlariga baholi qudrat hissa qo‘shishga harakat qilayapmiz, — deydi Quva tumanidagi ko‘chatchilikka



ixtisoslashgan “Vodiy gullari” fermer xo‘jaligi rahbari Alijon Tojiboyev. — Bahorgi mavsumda intensiv bog‘ barpo qilmoqchi bo‘lgan hamyurtlarimizga 500 ming tupdan ortiq olma, gilos, o‘rik, shaftoli, nok ko‘chati hamda 400 ming tupga yaqin 300 turdagi turfa gul niholi, Karkidon suv ombori hududida tashkil etilayotgan “Yashil belbog‘” loyihasi uchun esa ninabargli ko‘chatlar yetkazib beryapmiz.

Ko‘chatchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari bilan bir qatorda aholi tomorgalarida ham mevali va manzarali ko‘chatlar yetishtirish an‘anasi rivojlanmoqda. Turk, Yangihayot, Tolmozor, Qaqir, Boyiston, Guliston, Yangichek, Qoraqum mahallalari ko‘chatchilikka ixtisoslashtirildi.

“Qaqir” mahalla fuqarolar yig‘inida bu borada ibratli ishlar ommalashtirildi. Mahalladagi 1300 oila tomorgasidan unumli foydalanib, mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini yetishtirib keladi. 180 xonadon issiqxonasida mavsumiy gul va manzarali daraxt ko‘chatlari parvarishlanaypti. Istiqbolli rejalardasturiga ko‘ra, ko‘chatchilikka ixtisoslashtirilgan yana 300 ta issiqxona faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Yo‘l cheti, aholi xonadonlari oldida tartib bilan ekilgan turfa mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari har qanday kishi e’tiborini tortadi.

Tomorgada manzarali ko‘chat yetishtirish va parvarishlashda Akbarjon Zokirovning tajribasi katta. U har bir qarich yerdan unumli foydalanishga harakat qilib kelyapti.

— Yigirma sotix yerda ko‘chat yetishtiramiz, — deydi tomorgachi. — O‘tgan mavsumda 30 mingdan ortiq gul va mevali daraxt ko‘chati yetkazib berdik. Ayni kunda sarxil archa, na‘matak ko‘chatlari parvarishlayapmiz. Lola daraxti va limuza manzarali gul ko‘chatlari yetishtirishni yo‘lga qo‘yganimiz. Bu bir mavsumda 200 million so‘mdan ziyod daromad olish imkonini beradi.

Ish ko‘lami shunchaki ko‘chat ekish bilan poyoniga yetayotgani yo‘q. Unda har bir daraxtni ekish, suv bilan ta‘minlash, parvarishlash, hasharot va boshqa zararkunandalardan himoyalash bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratilmoqda.

— “Yashil makon” umummilliy loyihasining bu yilgi bahor va kuz mavsumida viloyatimizda 15,2 million tup daraxt ko‘chati yetkazib berildi. Ayni kunda sarxil archa, na‘matak ko‘chatlari parvarishlayapmiz. Lola daraxti va limuza manzarali gul ko‘chatlari yetishtirishni yo‘lga qo‘yganimiz. Bu bir mavsumda 200 million so‘mdan ziyod daromad olish imkonini beradi.

Keyingi uch yilda Farg‘ona viloyatida 45 million tup ko‘chat va buta ekilib, yashillik darajasi 38 foizdan oshdi. Yaqin istiqbolda bu bog‘lar hududida aholi uchun hordiq chiqarishga mo‘ljallangan yashil tabiat maskanlari bunyod etish maqsad qilingan. Bundan tashqari, 17 ta chiqindi poligoni atrofida terak va tol ko‘chatlari ekilib, maxsus ihotazorlar barpo etishga alohida e’tibor berilaypti.

Hududlarni obodonlashtirish ko‘rkam bog‘lar, ro‘g‘laryaratish xalqimiz gaxos fazilatlaridan. Bu qadimiy an‘analargaxos yillarda yanadarrivojlanib, taraqqiy etayotgani, yangi tashabbuslarga qaratilgan bo‘layotgani bilan e’tiborli.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Sharh



EKOLOGIK EKSPERTIZA

Yangi qonun normalari tabiat musaffoligini ta‘minlashga qanday ta’sir qiladi?

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan har yili 200 million tup daraxt va buta ko‘chatini ekish tom ma‘noda yaxshi an‘anaga aylandi. Atrof-muhitga antropogen ta’sir etuvchi sanoat korxonalari va transport vositalari ustidan samarali davlat va jamoatchilik nazorati o‘rnatildi. Elektromobil sanoatini rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida e’tibor qaratilmoqda.

“Yashil” energetikani rivojlantirish borasidagi yirik investitsiya loyihasi hisobiga katta natijalarga erishilmoqda. Joriy yil yakuni bo‘yicha mamlakatimizning jami elektr energiyasi tarkibida ekologik toza energiya salmog‘ini 30 foizga yetkazish mo‘ljallangan.

Muammo va kamchiliklar

Biror soha rivoji, avvalo, uning huquqiy asosi qay darajada mukammal ekaniga uzviy bog‘liq. Shu ma‘noda, bundan chorak asr ilgari qabul qilingan “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonun normalari bugungi kun talablariga javob bermay qo‘ydi. Jumladan, undagi bo‘shliqlar va havolalar, qonunosti hujjatlarining tarqoqligi hamda ekologik ekspertiza xalqaro normalariga mos kelmasligi ekologik ekspertizadan o‘tkazish jarayoni samaradorligini oshirishga to‘sinlik qilib kelayotgandi.

Amaldagi qonunda davlat dasturlari, konsepsiyalari loyihalarida hamda shaharsozlik hujjatlarini davlat ekologik ekspertizadan o‘tkazish tartibi belgilanmagani sababli mazkur strategik hujjatlar amalda ekologik ekspertizadan o‘tkazilmagan. Bu, o‘z navbatida, yaqin, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan strategik hujjatlarida ko‘rsatilgan tadbirlarni amalga oshirishda qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Ushbu qonun bilan atrof-muhitga ta’sirni baholash materiallari va ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiquvchining faoliyati tartibga solinmagani hamda



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



loyihachining huquq va majburiyatlari belgilanmagani taqdim etilayotgan loyiha hujjatlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugun 100 mingdan ortiq xo‘jalik yurituvchi subyektning barchasi ham ekologik ekspertiza xulosasiga ega holatda faoliyat yuritaypti deb bo‘lmaydi. Qonunchilikda ushbu huquqbuzarlikka ma’muriy javobgarlik belgilangan bo‘lsa-da, bu boradagi huquqbuzarliklar davom etmoqda.

Shuningdek, amaldagi qonun bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning atrof-muhitga ta’sir darajasi bo‘yicha toifa ko‘pligi va ular o‘rtasidagi farqlashning aniq mezonlari mavjud emasligi normani qo‘llash jarayonida tadbirkorlik subyektlarining e’tiroziga sabab bo‘lmoqda.

Qolaversa, sohaning ochiqchligi va shaffofligini ta‘minlashda ekologik ekspertiza yo‘nalishini raqamlashtirishning huquqiy asoslari hamda jamoatchilik ekologik ekspertizasi instituti mavjud emasligi ham sohani demokratik tamoyillar asosida yuritish imkonini bermayapti. O‘z navbatida, bu kabi muammo va kamchiliklar atmosfera havosi ifloslanishiga sabab bo‘lmoqda.

Huquqiy asos va galdagi ustuvor vazifalar

Shu yil 24-fevralda qabul qilingan “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi qonun bugungi globallashuv jarayonida atrof-muhit muhofazasi sohasida muhim huquqiy hujjatdir.

Yangilangan qonun bilan ekologik ekspertizadan o‘tkazishning xalqaro skrinning va skouping mexanizmlari joriy etilishi orqali atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha obyektlar toifalari 4 tadan 3 taga tushirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, xizmat ko‘rsatish, hunarmandchilik va savdo xizmatlarga yo‘naltirilgan minglab subyektlar faoliyatiga byurokratik to‘siqlar qo‘yilishining oldini oladi. Vaqt va moliyaviy xarajatlarni qisqartirishga olib keladi.

Amaldagi qonunda davlat dasturlari, konsepsiyalari, shaharsozlik hujjatlari kabi strategik hujjatlar ekspertiza obyektlari hisoblanadigan, bunday loyihalarini ekologik ekspertizadan o‘tkazishning huquqiy mexanizmlari mavjud bo‘lmagan. Yangi qonunga muvofiq, strategik ekologik baholash tizimi joriy etilishi mazkur hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyat oqibatlarini oldindan aniqlash, baholash va tegishli choralar ko‘rishga zamin yaratadi.

“Elektron hukumat” prinsiplariga ko‘ra, atrof-muhitga ta’sirni baholash bo‘yicha yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining huquqiy asoslari belgilab berilmoqda. Ushbu mexanizm tadbirkorlik subyektlari uchun davlat ekspertizasi o‘id materiallarni onlayn tarzda taqdim etish va shu tartibda xulosa olishga imkon beradi. Bu esa sohada inson omilini cheklash orqali tadbirkorlik subyektlari ovoragarchiligining oldini olish, tizim shaffofligini ta‘minlash, pirovardida korrupsiyon holatlarga barham berishga xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda, ekspertizani o‘tkazish bilan bog‘liq muammoli va bahsli masalalarni hal etish uchun doimiy faoliyat yurituvchi Ekspertlar kengashini tashkil qilish normasi kiritilmoqda. Mazkur norma kollegial kelishuv asosida qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Sohaning xolislik va asoslanganlik prinsiplarini ta‘minlaydi.

Qonunda buyurtmachi, loyihachi va ekolog-ekspertning vakolatlariga aniqlik kiritilib, mas’uliyati kuchaytirilmoqda. Loyihachilarga nisbatan malaka sertifikatini joriy etilishi va tashkilotlar reytingi yuritilishi samaradorlikni oshirishga zamin yaratadi.

Davlat ekologik ekspertizasi organlari tomonidan 2024-yilda qariyb 32 mingga ekologik ekspertiza xulosasi berilgan bo‘lsa, shundan 673 ta loyiha ekologik talablarga javob bermagani sababli rad etilgan. Mana shu jihatdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, yangi qonunda loyihachilarga nisbatan malaka sertifikatini joriy etish

va loyiha tashkilotlarining reytingini shakllantirishning huquqiy asoslari belgilangan, o‘z navbatida, ekologik talablarga javob bermaydigan loyiha hujjatlarini tayyorlashning oldini oladi.

Qonun yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan fuqarolarning qulay atrof-muhitga hamda uning holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqlarini ta‘minlash, shaharsozlik hujjatlari loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazishning huquqiy asoslarini yaratish, bir so‘z bilan aytganda, ekologik barqarorlikni ta‘minlashda dasturlamal bo‘ladi.


Davlat dasturida globallashuv jarayonida “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, chiqindilarni muammosini hal qilish kabi masalalar ekologik ekspertiza faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berildi. Keyingi bosqichda ekologik ekspertiza faoliyatining qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish vazifalari belgilangan davlat ekspertiza organlariga katta majburiyat yuklaydi. Xususan, Davlat ekologik ekspertizasi markaziga mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha sanoat va ishlab chiqarish korxonalari qamrovini to‘liq ta‘minlash hamda davlat ekologik ekspertizasi xulosalari ijrosini ta‘minlash borasida samarali monitoring yuritish vazifasi yuklangan. Ushbu maqsadlarga erishish ekologik barqarorlikni ta‘minlash, Parij kelishuviga asosan olingan majburiyatlarini to‘liq bajarish, davlatimizning xalqaro maydondagi imijini oshirishga xizmat qiladi.

Yangilangan qonun umumbashariy ekologik xavflar kuchayib borayotgan bir vaqtda qabul qilindi. Bu mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash borasidagi ishlar samaradortligini oshirishga zamin yaratadi. Boshqa tomondan esa markazimizning har bir xodimi zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

G‘ayrat MUHAMEDOV,
“Davlat ekologik ekspertizasi markazi”
davlat muassasasi bosh direktori

Keyingi uch yilda Farg‘ona viloyatida 45 million tup ko‘chat va buta ekilib, yashillik darajasi 38 foizdan oshdi. Yaqin istiqbolda bu bog‘lar hududida aholi uchun hordiq chiqarishga mo‘ljallangan yashil tabiat maskanlari bunyod etish maqsad qilingan. Bundan tashqari, 17 ta chiqindi poligoni atrofida terak va tol ko‘chatlari ekilib, maxsus ihotazorlar barpo etishga alohida e’tibor berilaypti.

EZGULIK TIMSOLI VA VATAN MEHRINI MUSTAHKAMLOVCHI QUDRAT



Habib SIDDIQ,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Uyg'onish faslining dillarga ajib iliqlik va ko'tarinkilik baxsh etayotgan shu kunlarida yurtimizda tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovati timsoli – Navro'z umumxalq bayramini nishonlashga qizg'in hozirlik ko'rilmog'da. Garchi bu ayyom har yili takrorlansa-da, kattayu kichik uni mo'jizani kutgandek orziqib qarshilaydi. Chunki yoshimiz va kasb-korimizdan qat'i nazar, barchamiz bahorni, bahoriy ne'matlarni, ko'klam nafasini sog'inib yashaymiz.

milliy ruhiyati, ma'naviyati va fe'l-atvorining o'ziga xos, olijanob jihatlari ham namoyon bo'ladi.

— Navro'zning tarixi va nishonlanish usullariga nazar solsak, undagi oddiy xalqqa tegishli odatlar e'tiborini tortadi. Qadimda bayram kuni odamlar hayotingiz shirin bo'lsin deb bir-biriga shirinlik ulashgan. Go'zal bo'ling degan ma'noda gullar taqdim qilgan, boshlanayotgan yilda suv ko'p bo'lib, mo'l hosil unishini tilab, bir-biriga suv sepgan. Ajdodlarimiz asrlar bo'yi Navro'z arafasi doshqozonlarda sumalak qaynatib, kelayotgan yangi yil barakali, fayzli va serhosil bo'lishiga umid bog'lagan, — deydi

degan maqoli juda mashhurligi bejiz emas. Navro'z kelishi bilan bahor nafasidan borliq tanasiga qayta jon kiradi. Yoshi ulug'lar yurtda tinchlik-osoyshtalik bo'lsin, dehqonchilimiz usnin deb duoga qo'l ochadi. Qorli-qirovli kunlarni dalasini sog'inib o'tkazgan o'zbek dehqoni barakali va mo'l hosil olish umidi bilan Navro'z pallasida yerga urug' qadaydi, ko'chat o'tqazadi, atrof-muhitni ko'rkamlashtirishga intiladi.

Bobodehqonning ilk bor dalaga qo'sh chiqarishi ham Navro'zdan boshlangan. Dalaga qo'sh chiqarishdan oldin u bilan bog'liq turli urf-odat, marosimlar o'tkazilgan. Qurbonliklar

tomonlama e'zozlash, Mehribonlik, Saxovat va Muruvvat uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy daftarlarga kiritilgan va ko'makka muhtojlar holidan xabar olish uchun ularga bayram dasturxonini yoziladi hamda turli xayriya tadbirlari o'tkaziladi.

Shahar va qishloqlarimizda navro'zoldi xayriya hasharlarini, obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish ishlarini tashkil etish jarayonida yoshlarda ona zaminga, tabiatga mehr tuyg'ularini kamol toptirish, ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadlari ham nazarda tutiladi. Navro'z udumiga, navro'ziy urf-odatga aylanib ketgan bu kabi tadbirlar

bepoyon dalalarga boqib, jannatmonand yurt farzandi ekanimizdan ko'ngillarimiz faxru g'ururga to'ladi.

Bahor va yoshlik — ezgu tushunchalar. Yoshlikni umr bahori deb ham ataydilar. Shu bois, Navro'z munosabati bilan qilyotgan ishlarimizning barchasi buyuk kelajak bunyodkorlari bo'lmish yoshlarni istiqloq g'oyalarga sadoqat hamda milliy ma'naviy qadriyatlarimizni e'zozlash ruhida tarbiyalash, yangi O'zbekiston zaminini gullab yashnashi uchun har birimiz mas'ul ekanimizni his qilmog'iga erishishga yo'naltirilgan.

Xalqimizning bayramlari hamisha kuy-qo'shiqqa, hazil-mutyobiga esh bo'lgan. Bayram kunlari turli avlod vakillarining bahor taomlari tortilgan dasturxon atrofida jamulgan bo'lishi ham yoshlarga Navro'z bilan bog'liq udumlar, urf-odatlar va an'analar haqidagi tushunchalarini singdirishga xizmat qiladi.

Ayni bahor faslida inson o'zini tabiatning ajralmas, uzviy qismi sifatida his qilishini ifoda etadigan, atrof-muhitni, ona zaminni e'zozlab, ne'matlarini, bugungi tinch hayotni qadrlab, shukrona tuyg'usi bilan yashashga da'vat etadigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtiriladi.

Navro'zning kelishi shunchaki tabiat yashnashi, yangilanishi emas, balki inson ongi va tafakkurining ham yangilanishi deganidir. Bu yilgi Navro'zning har bir tantanasida yurtimizda yuz berayotgan islohotlar bilan birga xalqimizning ong, tafakkurida yuz berayotgan evrilishlar o'z ifodasini topadi.

Mustaqillikning o'tiz to'rtinchi yili bahorini yurtdoshlarimiz ko'tarinki ruh, yangidan yangi orzu-umidlilar bilan qarshi olmoqda. O'lkamizda Navro'z nafari kezib yuribdi. Yaratganga shukrlar bo'sinki, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, bunyodkor xalqimiz ertangi kunga ishonch bilan qadam tashlamoqda. Yangilanish va yasharish ayyomi bo'lgan bahor bayrami zavqi va nashidasini to'laqonli tuyish va his qila olishning kafolati ham ana shunda. Chunki tinch va osoyishta, barqaror va farovon yurgagina bayramlar yarashadi.

Asrlar davomida biz uchun ezgulik timsoli bo'lib kelgan Navro'z jahon hamjamiyatiga biz kimlarning avlodi, qanday ulug' tarix va boy ma'naviy meros vorislari ekanimizni yaqqol namoyon qilish imkonini beradi.

Navro'z shunchaki namoyish, shunchaki bayram emas, balki insoniy hislarga, mehr-og'ibnat tuyg'ulariga kuch-qudrat baxsh etuvchi, kishilarni birlashtiruvchi hamda ular qalbi va ongida yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlovchi omildir.

Shuning uchun ham buyuk bobomiz Hazrat Navoiyning "Har tuning Qadr o'lbon, har kuning bo'lsin Navro'z!" degan go'zal satiri bir-birimizga ezgu tilak bo'lib tilimizda, dilimizda tez-tez takrorlanadi.

Xalqimiz ma'naviy sarchashmalaridan oziqlanuvchi, hayotimizni zamon bilan hamnafas yangicha mazmun-mohiyat bilan boyitib boruvchi asl qadriyatlarimiz barhayot ekan, ana shunday tilaklar, ezgu umidlilar qaddi va qadri yuksalayotgan yangi O'zbekiston farzandlariga yo'ldosh bo'laveradi.

Sharq xalqlarining umrboqiy ma'naviy qadriyatlaridan biriga aylangan Navro'z bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda ta'kidlanishicha, bu bayramning yuzaga kelishi koinot hamda tabiat sirilari va qonunlariga, ya'ni quyoshning hamal burjiga kirishi, kun va tunning vaqt jihatdan barobar bo'lishi, bahorning kelishi, tabiatning uyg'onishi bilan bog'liq.

Abu Rayhon Beruniy bundan ming yil avval "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Navro'zni ta'riflagan edi. Umar Xayyomning "Navro'znoma" asarida esa Navro'zning kelib chiqishi, ajdodlarimizning shunga bog'liq urf-odatlari, shuningdek, sumalak haqida mufassal ma'lumotlar bor.

Buyuk alloma Beruniy "Quyosh va Oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek, Navro'z va Mehrjon zamonning ikki ko'zidir", deb ta'riflagan edi. Navro'z bahorda kun va tunning barobar kelishida, Mehrjon esa kuzda xuddi shunday holatda nishonlanadi. Navro'zni Beruniy "olamning boshlanishi", Firdavsiy esa "bayramlar shohi" deb ataydi.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida bu holga quyidagicha ta'rif bergan: "Sharqdan bahor nasimi esib keldi, olamni bezamoq uchun firdavs yo'lini ochdi. Oq rang ketib, bo'z yerni alvon rang qopladi, olam o'ziga oro berib bezannmoq taraddudiga tushdi. Zerikarli qishni bahor nafasi haydadi, musaffo bahor yana o'z hukmiga kirdi. Quyosh yana qaytib o'z o'miga

keldi, Baliq (hut) dumidan qo'zi (hamal) burjiga ko'chdi. Uyguga kirgan daraxtlar yana yashil to'n kiydi, ol, sarig, ko'k, qizil rangli harir yopinchilqlar bilan bezandi".

Bayramlarning eng qadimiysi, go'zali va ulug'vori bo'lmish bahor va yangilanish ayyomi — Navro'z asrlar osha sayqallanib, yangicha mazmun-mohiyat kasb etib keladi. Milliy bayramlar har bir xalqning g'ururi va iftixoridir. Biz uchun ham xalqimizning Navro'z kabi milliy qadriyatlari aziz va tabarrukdir. Lekin sho'rolar davrida kommunistik mafkura tarafdorlari Navro'zga diniy tadbir, eskilik sarqiti deb qarashgacha bordi. Uni xalq turmushidan, xotirasidan o'chirib tashlashga, boshqa tadbirlar bilan almashtirishga urinib ko'rdi.

Mustaqillik xalqimizga o'tmishda toptalgan urf-odat, an'analarimiz, qadriyatlarimiz qatori Navro'zni ham qaytarib berdi. Mustahkam ildizlarga ega bo'lgani uchun ham Navro'z udumlari, an'analari, navro'ziy urf-odatlar hamon davom etib, sayqallanib, takomillashib kelmoqda. U qadim zamonlardan buyon bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biri, tom ma'nodagi umumxalq bayramidir.

O'zbeklar va Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlarning tarixiy sinovidan o'tgan bayram hamda marosimlar kishilarning o'zaro munosabatidagi fazilatlarini, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarini aks ettiradi. Bunday milliy urf-odat va marosimlarda o'zbeklarning



tarixchi olimi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar muarabiyi Dilshodxon Qurbonova. — Xalqimizda sumalak nonday qadrlanadi. Uni tayyorlashda alohida tartib-qoidalariga, ma'naviy mezonlarga amal qilinadi. Hatto sumalak pishirilgan qozon yuvilgan suv ham duch kelgan joyga emas, mevali daraxt tagiga to'kiladi.

Necha ming yillik tarixga ega bu bayram inson ichki olami va tabiat uyg'unligi ramzidir. Bu davrda nafaqat tabiatda, balki insonlarning ko'nglida ham yangi umid va orzular kurtak yozadi. Dillar poklanadi, o'zaro mehr-og'ibat tuyg'ulari namoyon qilinadi.

Xalqimizning "Hamal kirdi — amal kirdi"

qilinib, qo'shga qo'shiladigan ho'kizlar shoxi yug'langan. Bu "shox moylar" marosimidan maqsad yilning qut-barakali kelishiga, to'kin-sochilik bo'lishiga umid qilingan.

Prezidentimizning "2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, bu yilgi bayram mamlakatimizda "Qadriyatlaring boqiy bo'lsin, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida yuqori saviyada keng nishonlanadi. Muqaddas Ramazon oyida nishonlanishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har

yosh avlod qalbida ezgulikka, yaratuvchilikka oshnolik hissini rivojlantiradi. "Yashil makon" umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, bayram arafasida barcha hududlarda, ko'cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish aksiyalarini, umumxalq hasharlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Bayram tadbirlari bahonasida xalqimizning hamjihatlik, mehr-og'ibat kabi bebaho xislatlari yanada sayqal topib bormoqda.

Tabiat uyg'onayotgan shu kunlarda ona zamin bag'ridan sizib chiqayotgan zilol suv, uyg'onayotgan bog'lar, rizq-ro'zimiz unayotgan



Odamlarning g'ala-g'ovuridan so'ng gumburlagan kulgi ovozi quloqqa chalindi. Ahmad bobo ko'zlarini ochdi. So'ng yo'lovchilardan birining "hey" degan ovozi eshitildi-yu, atrofga sokinlik cho'mdi. Hatto oyoq tovushlari ham tindi. Ko'p ehtimol, kimdir bu uyda keksa odam yashaydi, uyalmaysanlarmi, jim, deya dakki berdi. Bizda odat shunaqa, keksa, betob insonlar yashaydigan hovli yonidan ohista o'tiladi. Yotoqqa mixlangan Ahmad bobo boshini ko'tarib, derazadan ko'chaga qaradi. Endi yorishayotgan tong g'ira-shirasida bir to'da odamning qishloq poyidagi adirlikka ketayotganini ilg'adi. Ularning qo'lidagi doshqozon va o'choqni ko'rib, bugun qishloqda darveshona ekanini angladi. "Birpasda ko'klam ham kelib qolibdi", dedi qayta joyiga yotar ekan. Uyquasi uchib, xayoli o'sha olis bolalik chog'lariga ketti...

Ahmadjon yugurib onasining oldiga keldi va adirlikka to'planayotgan odamlarni ko'rsatib, "Onajon, u yerda nima bo'lyapti?" dedi. — Ha, darveshona bo'lyapti, bolam, — dedi Ahmadjonning onasi. — Darveshona, nima u? — Darveshona xalqimizning ming yillardan beri o'tkazib kelinadigan o'ziga xos an'anasi. Unda el sovuq qishdan omon chiqqaniga

shukrona keltirib, bir-birini bahor bilan qutlaydi. Butun qishloq ahli bir joyda yig'ilib, topgan-tutganini dasturxonga qo'yadi. Mahalla nuroniylari yurt tinchligi, xalq farovonligi, eng asosiysi, yil yaxshi kelishi, ekin-tikin mo'l bo'lib, qo'y-qo'zilar ko'payishini so'rab duo qiladi, — deya tushuntirdi onasi.

So'ng uyga kirib, tokchadagi suprani oldi. Uni ochgach, hech vaqo qolmagani ko'rib, ko'zlari namlandi. Ahmadjon bo'sh supraga tikilib turgan onasi qo'lidan tortib, ketdikmi, onajon, ketdikmi, deb qistardi. Shu payt hovlidan kimmingdir egachi, deya chaqirgani eshitildi.

Eshikni ochishsa, qo'shni xola ikkita dasturxonga o'ralgan tovoq ko'tarib chiqibdi. "Egachi, ko'proq ko'k somsa yopib ko'ygan ekanman, ikkita dasturxon qilib chiqaverdim. Biri sizga, biri menga, tezroq yuring, hech qolamiz", dedi qo'shni ayol. Ona ko'z yoshlarini artib, qo'shnisiga rahmat aytib yo'liga otlandi.

Hali adirga yetib borilmasidan ortiga qaytayotgan odamlar bilan yuzma-yuz keldi. Ona ulardan nima bo'lganini so'radi. Ey, so'ramang, singlim, kolxoz raisi bilan "uchastkavoy" kelib, hammani tarqatib yubordi. Bunday yig'inlarni o'tkazish mumkin emas ekan, yuqoridan ruxsat bermabdi. Bu eskilik sarqitini omallashtirishga uringanlar jazolanadi, deyishibdi.

Ular ham xomush tortib, uyga qaytdi. Qo'shni xola "G'am yemang, egachi, yuring biznikiga, ko'k somsalarni yeb, bolaligimizdagi darveshonalarni eslab, gurgunglashib o'tiramiz", dedi. Ularning uyiga kirishganida qo'shnining shiftga tikilib yotgan xasta onasi menga

XALQNI BIRLASHTIRUVCHI ko'rinmas zanjir



bir joyda yig'ilib, bayram-tantana qilish uchun o'tkazilmaydi. Shukrona aytib, kengashib, mahalladagi og'ir turmush kechirayotgan qo'ni-qo'shniga xayr-saxovat, yordam qilishga kelishib olish uchun bo'ladi.

— To'g'ri aytasiz, ota, ishdan ertaroq kelib, men ham mahalladoshlarga qo'shilaman.

Ko'chaga shoshib ketayotgan o'g'liga Ahmad bobo "Bir iltimos, shu darveshonadan bir tovoq menga ham olib keli", dedi.

— Xo'p, hozir nabirangizga tayinlab qo'yaman, — deya xayrlashdi o'g'il.

Kattalar so'zini bo'lmay eshitgan qizaloq: — Bobo, darveshona qanaqa taom, shirinmi? — deya savol berdi. Ahmad bobo nabirasining boshini silab:

— Aslida, darveshona taomning nomi emas, u yerda yorma qilinadi. Ammo har safar darveshonada yeyilgani uchun bu taomni shunday atashadi. U yerda osh, yorma kabi to'yimli, sergo'sht, tansiq taom pishirilishining ham o'ziga yarasha sababi bor. Ilgari qish kunlari ko'pchilik oilalarda yetishmovchilik bo'lgan. Ba'zi oilalarning qora qozoni qaynamay qoldirdi. Bu esa ota-bobolarimiz aytgan "ilik uzildi", ya'ni inson holsizlanib, vitamin yetishmovchiligidan aziyat chekadigan erta bahorda tez betob bo'lib qolishga olib keladi. Darveshonada mana shunday oilalar ham to'yib yesin, kuchga to'lsin deb tansiq taom pishiriladi. Ayollar uylaridan qand-qurs, shirinliklar tayyorlab boradi va uzun dasturxon bezaydi.

Erkaklar esa o'choqqa doshqozonni o'rnatib, taom tayyorlashga tutinadi. Bunday tadbirlar yurtdoshlarni bir jonu tan bo'lib ishlashga, hamjihatlikka, vatan ravnaqi, xalq farovonligi uchun harakat qilishga undaydi. Balki shuning uchun ham eski tuzum davrida xalqning bunday urf-odatlari, an'analarini eskilik sarqiti degan vajlar bilan taqilashga urinishgandir.

Ahmad bobo so'zga berilib, o'z xayollari bilan bo'lib, nabirasi uxlab qolganini ham sezmad. So'ng nabiralari darveshonaga yo'l oldi, Ahmad bobo esa xayollari, achchiq-chuchuk xotiralarini bilan yolg'iz qoldi.

Uyqu eltgan Ahmad bobo ko'zlarini ochsa, allaqachon qosh qorayibdi. Bir ozdan so'ng darveshonadan qaytgan o'g'li va nabiralari kirib keldi. Ahmad bobo menga ham darveshona olib keldilaringmi, deb so'radi. Afsuski, hech kim olib kelmabdi. O'g'li otasining istagini unutganidan mulzam bo'ldi.

Shu payt tashqaridan "Ahmad bobo, hov, Ahmad bobo", degan ovoz eshitildi. "Labbay", dedi joyidan jilmay katta nabirasi. Tashqaridan "Ahmad boboga rais darveshona berib yubordi, olib qolingizlar", degan ovoz keldi.

Ahmad bobo taomlanib, o'g'li va nabiralarning taassurotlarini tingladi. Aslida, bu ta'mni emas, darveshonaning o'zini sog'inganini angladi. Nabiralari uyquga ketgach, o'g'liga bir oz nasihat qilgan bo'ldi:

— Senu biz o'tib ketamiz, ammo Navro'z, darveshona singari qadriyatlar boqiy qoladi. Elni el qilib turgan narsa ham uning mana shu boqiy qadriyatlaridir. Ular xalqni birlashtiradi. Bu kun nabiralaringning ongiga o'chmas bo'lib muhrilarni qoldi. Kelgusida mana shunday xotiralar ularni bir-biriga, oila, vatan, xalqiga ko'rinmas zanjirdek bog'lab turadi.

Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-rqan bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
37346 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadortlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'Z'a yakuni — 00:55 Topshirildi — 01:05

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.